

MUSIQA TA’LIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Farg’ona davlat universiteti

1-kurs magistranti

Madaminova Xolida

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz ta’lim tizimining jahon andozalariga mos tarzda rivojlanishi, ilg’or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy usullarni tatbiq etish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Musiqa ta’limi insonning estetik didini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutgani ta’kidlanadi. Shuningdek, maqolada musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol o‘qitish usullari, innovatsion texnologiyalar va ularning o‘quvchilarning musiqiy qobiliyatlariga ta’siri batafsil yoritiladi.

Kalit so’zlar: Pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari, ijodiy qibiliyatlar, innovatsion metodlar, interfaol usullar, ta’lim samaradorligi.

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие образовательной системы нашей страны в соответствии с мировыми стандартами, вопросы повышения эффективности образовательного процесса за счет внедрения передовых педагогических технологий и современных методов. Отмечается, что музыкальное образование играет важную роль в формировании эстетического вкуса и развитии творческих способностей человека. Также в статье подробно рассмотрены информационно-коммуникационные технологии в музыкальном образовании, интерактивные методы обучения, инновационные технологии и их влияние на музыкальные способности учащихся.

Ключевые слова: Педагогические технологии, информационные технологии, творческие способности, инновационные методы, интерактивные методы, эффективность обучения.

POSSIBILITIES OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC EDUCATION

Abstract: This article considers the development of our country's education system in accordance with world standards, increasing the effectiveness of the educational process through the implementation of advanced pedagogical technologies and modern methods. It is emphasized that music education plays an important role in the formation of a person's aesthetic taste and the development of creative abilities. The article also discusses in detail the use of information and communication technologies, interactive teaching methods, innovative technologies in music education and their impact on students' musical abilities.

Keywords: Pedagogical technologies, information technologies, creative abilities, innovative methods, interactive methods, educational effectiveness.

KIRISH

Mamlakatimizda yangilanib, jahon standartlariga mos keladigan ta‘lim mazmuni tabiiy ravishda emas, balki ilg‘or pedagog-olimlar, metodist o‘qituvchilar va jahon tajribasida erishilgan pedagogika yutuqlari orqali takomillashtirilmoqda. Shu sababli, ta‘limni hozirgi bosqichda isloh qilish vazifalari yangicha fikrlaydigan, tezkor axborot va texnologiyalar, kompyuterlashgan modelli o‘qitish sharoitida yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasi uchun mas‘ul bo‘lgan ijodkor o‘qituvchilarni shakllantirishga qaratilgan.

Musiqa ta‘limi insonning estetik didini shakllantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va madaniy merosni avlodlarga etkazishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy ta‘lim jarayonlarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Ushbu maqolada musiqa ta‘limida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Musiqa ta‘limidan davlat ta‘limi standartlari asosida yangi ta‘lim mazmuni o‘quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda asosan tarbiyani birga olib borish lozimligi ta‘kidlanadi. Shu bois, musiqa madaniyati ta‘limning yangi mazmuni, yosh avlodni milliy musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi. Bunda o‘quvchilar musiqa san’atini butun nafosati bilan o‘rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatları: musiqani badiiy idrok

etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni nima, u an'anaviy dars turlaridan nimasi bilan farqlanadi degan masalaga e'tiborni qaratamiz. Ma'lumki, an'anaviy dars turlarida ta'lim-tarbiya jarayonida markazda o'qituvchi turadi. U o'quv materialini tushuntiradi, so'raydi va baholaydi.

O'quvchilar esa o'qitish jarayonining sust ishtirokchisi bo'lib, ular o'qituvchi tushuntirishini eshitadilar va uning savollariga javob berish bilan kifoyalanadilar. Pedagogik texnologiyaga asoslangan o'qitishda esa o'quvchi mustaqil ravishda bilim ko'nikma malaka egallash bilan birga o'z faoliyatlarini baholash darajasiga ko'taradilar. Bunday o'qitishning esa ijrochisi o'quvchidir.

O'qituvchi bunda ta'lim olishning tashkilotchisi, o'quvchining yordamchisi sifatida qatnashadi. Ta'limning zamonaviy sharoitlarida an'anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo'yilayotir. Hozirgi kunda o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar, dars o'tishning noan'anaviy usullari, xususan, interfaol usul keng joriy etilyapti.

Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar inson saloxiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tuzilish metodidir.

Musiqa darsi o'tishning zamonaviy pedagogik usullariga doir ko'plab qo'llanmalar mavjud, bunday uslublarni ilg'or musiqa muallimlarining o'zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda. Xususan, “mavzu qanday bayon qilganda uning necha foizi o'quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o'zlashtiriladi?” degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o'tkazilgan ma'ruzalarning dialog shaklida olib borilishi tajriba yakunida bugungi o'quvchilarning mustaqil fikrashlari o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. Musiqa ta'limi yo'nalishi o'quvchilariga “Musiqa o'qitishning innovatsion texnologiyalari” fanini o'qitishda “Aqliy hujum”, “Juftlikda ishlaymiz”, “Musiqani top”, “Raqamlarni tanla”, “Xotira charxi” va boshqa usullarni qo'llash jarayonida yuqori natijalarga erishmoqdamiz.

Pedagogik texnologiyalar – bu ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarishning zamonaviy usullari majmuidir. Ular o'qitishning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish va bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Musiqa ta'limida bu texnologiyalar o'quvchilarning ijodiy

qobiliyatlarini rivojlantirishda, ularning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Musiqa ta’limida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari

1.Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

• Virtual darslar va onlayn platformalar: ZOOM, Google Meet, Moodle kabi platformalar yordamida masofaviy musiqa darslari tashkil qilish mumkin. Bu, ayniqsa, individual yondashuv talab qilinadigan vokal va cholg‘u asboblari darslarida qulaylik yaratadi.

• Multimedia vositalari: Interaktiv taqdimotlar, audio va video materiallar orqali musiqa nazariyasini osonroq tushuntirish mumkin. Masalan, mashhur bastakorlarning asarlarini vizualizatsiya yordamida tahlil qilish.

2.Interfaol ta’lim usullari

• O‘yin texnologiyalari: Musiqa ritmini o‘rgatishda musiqiy o‘yinlar va mashqlar katta yordam beradi. O‘quvchilar uchun qiziqarli topshiriqlarni joriy etish orqali ularning e‘tiborini jalb qilish mumkin.

• Guruhiy faoliyat: Guruh bo‘lib kuylash, ansambl mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarda hamkorlik va jamoaviy ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

3.Innovatsion texnologiyalar

• Mobil ilovalar va dasturlar: Musiqiy ta’lim uchun mo‘ljallangan ilovalar (Musical Ear, Simply Piano, Yousician) orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda mashq qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

• Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR): VR yordamida o‘quvchilar orkestr tarkibida o‘zlarini sinab ko‘rishlari yoki tarixiy musiqiy sahnalarga virtual sayohat qilishlari mumkin.

Musiqa idrokini shakllantirishda ifoda vositalarining muhimligi qo’shiqni sof ohangda kuylash bilan xarakterlidir. Qo’shiqdagi unli tovushlarni cho’zibroq, undosh tovushli bo‘g’inlarni esa tez va burro talaffuz etish tavsiya etiladi. Bunday ifoda vositalari boshlang’ich sind o‘quvchilari bilan dars va qo’shimcha mashg‘ulotlar o’tkazish jarayonida qo’llanilsa dars samaradorligiga erishiladi.

Dars jarayonida o‘qituvchi musiqa tinglashda jonli ijrodan foydalansa o‘quvchiga yanada qiziqarliroq bo’ladi. Musiqa tinglash faoliyatini texnik vositalar orqali amalga oshirish bilan o‘quvchining musiqiy dunyoqarashi kengayadi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, cholg'u asboblariga jo'r bo'lish kabi harakatlarni bajarish bilan birga albatta ritmik harakatlarni to'laqonli ravishda bajarishlari shart. Bu bilan o'quvchining tinglash, diqqatni bir joyga toplash, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, chapaklar asosida ritmga jo'r bo'lish orqali qobiliyatları rivojlanadi.

Musiqa ta'limida texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari

- O'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishi ortadi.
- Darslarni o'tkazish jarayonida vaqtini tejashga yordam beradi.
- Talabalar ijodkorligini rivojlantiradi va ularni mustaqil o'rganishga undaydi.
- Ta'lim jarayonida individual yondashuvni ta'minlaydi.

XULOSA

Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli qo'llash orqali musiqa ta'limini yanada yuqori bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. J.G' Yo'ldoshev, S.A.Usmonov Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. -Toshkent, O'qituvchi 2004 yil.
2. Q.Tolipov, M.Usmonboeva Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.T. «Fan»2006 yil.
3. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion tehnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.T2000 yil.
4. D.A. Karimova Musiqiy pedagogi mahorat asoslari.T. Moliya-iqtisod 2008
5. Davletshin M. G. Zamonaviy mакtab o`qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O`zbekiston, 1999 – yil.
6. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.
7. Musiqa o`qitish metodikasi va mакtab repertuari. Fanning o`quv – uslubiy majmuasi. – SamDU, 2011 – yil.